

**FARZAND TARBIYASI - OTA-ONA MAS'ULIYATI****Mamadaliyev Maxmudjon Mamasoliyevich**

Namangan viloyati Namangan tuman
13-maktab amaliyotchi psixologlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni tarbiyalashdagi oila va ota-onaning o'рни, vazifalari haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oila, ota-ona, qadriyat, farzand, ta'lim-tarbiya, barkamol shaxs, yetuk inson.

Azaldan oila muqaddas sanaladi. oiladagi ijtimoiy hayot ota-ona tarbiyasi farzandlar kamoli uchun muhim omil hisoblanadi. Bola unib-o'sarkan hayotni ota-onasidan o'rganadi. Bola 14 yoshgacha ota-onadan quvvat oladi. Shu yoshgacha tanqid va aybdorlik hissini o'rniga mehr bergan bo'lsangiz bu albatta qaytadi. Inson o'zidan oshib-toshib ketgan narsanigina beminnat shunchaki bera oladi. Siz ham o'zingizdagi mehrni berayotgan bo'lsangiz bola ham shunday qiladi, sizni o'zingizga mehr yetmayotgan bo'lsa boladan ijobiy xulq atvorni va mehrni kutmang, chunki unda bu yo'q. Agar bola qo'rquvda yashasa u bezovta bo'lib qoladi. Agar bolaning iqtidori tan olinsa, u o'zining oldiga maqsad qo'yishni o'rganadi. Agar bola achinaverilsa, u achinishga o'rganadi. Agar bolaning xatti-harakatlari ma'qullansa u o'zini yaxshi ko'rishni o'rganadi. Agar bola rashk hissi bilan yashasa, u aybdorlik hissiga ega bo'ladi. Agar bolaga do'stona munosabatda bo'linsa, u dunyo yaxshi yashash uchun yaxshi maskan ekanligini anglaydi.

Bizning jamiyatimizda bu qatnamning yosh guruhleri o'rtacha 19-24 hamda 26-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etyapti. Birinchi guruh asosan o'rta maxsus ta'limi bitiruvchilari bo'lib, ular kollej va akademik litseylarni tugatib, yo oliy ta'lim yurtlariga



hujjat topshirishadi yoki o'z sohasi bo'yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham ishda qolib, uni davom ettirishmaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining faqat 10 foizigina birinchi yil oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiryapti xolos. Qolgan yoshlar o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishyapti, qolgan qismi esa haligacha tayinli ish topa olmay sarsonlikda yuribdi. Yoshlarning ayrimlari esa o'qishga kira olmay, ish topa olmay xorijiy davlatlarga ishlashga ketyapti. Xorijiy davlatdaham tayyor ish yo'qligi sababli u yerda ham sarsonlikda yurgan yoshlarimiz afsuski yo'q emas.

Endi esa yoshlar orasida bu ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritsak. Bunday holatga asosiy sabab, birinchi navbatda hali saviyasi past bo'lgan ota-onalarning hamda ularning farzandlariga berayotgan tarbiyasini ko'rishimiz mumkin. Bazi odamlarimizda hali-hanuz saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash va qoloq dunyoqarash bu muammoning asosiy omilidir. Ota-onalarning yoshligidan bolalarga berib kelayotgan “o'qib nima qilasan undan ko'ra ishni qil, qorning shundan to'yadi o'qib dunyoni olib berasanmi” qabilidagi fikrlari yoki bo'lmasa, bolalarni yoshligidan o'qib, ilm olishga yo'naltirmay psixologik dalda bermay, “qora mehnat”ga jalb qilib, shu bhonada o'qishdan bolani chalg'itib, buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o'rgatolmay, lo'nda qilib aytganda “sixni ham kabobni ham kuydirishlari” masalaning og'riqli nuqtalaridan biridir.

Oldimizda turgan muammolarni yechishda har bir ikir-chikir sabablarga nazar tashlash o'rinlidir. Bolaning yosh paytidagi o'tkir zehnli, barcha narsani qabul qilishga qodir bo'lgan paytda, ularni durust kasb-hunar yoki o'qishga yo'naltirish o'rniga bolalarni ko'chada vaqtini bekor o'tkazishiga ruxsat bergan, har safar maktabga yo o'qishga ketayotganida kissasini pul bilan to'ldirib jo'natayotgan, hali endi shakllanish bosqichida turgan bolalarga mobil telefon, kompyuterlar olib berib, ularni nazoratsiz, o'z xoxishiga tashlab qo'ygan ota-onalar oramizda yo'q emas. Hech qaysi bola yoshligidan kitob o'qishni xohlab, ota-onasidan iltimos qilmaydi, ular bu paytda qiziqqon, o'yin kulguga o'ch bo'lishadi, lekin unga yoshligidan ota-onasi zarur tarbiyani berib, o'qishga hamda



kasb-hunarga yo'naltirsa albatta undan kelajakda jamiyatga va oilasiga nafi tegadigan shaxs bo'lib ulg'ayadi. Lekin buning o'rniga bolaning yoshlikdan o'yin kulgu va o'tkinchi narsalar bilan band bo'lib, mobil telefon va kompyuterlar og'ishida o'sgan boladan nimani kutish mumkin? Zeroki, yoshlikda berilgan tarbiya insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib ulg'ayishida katta o'rin tutadi.

Bu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini aytib o'tishni lozim topdim: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir". Shubhasiz oila haqiqiy hayot maktabi va tarbiya o'chog'idir.

Biz yosh avlodga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg'ayganda buning foydasi hamda berilagan tarbiyaning to'g'riligini ongli ravishta tushunib yetsin. Agar shunday qila olsak u o'qishni o'zi anglab yetadi, boshini kitobdan ko'tarmaydi, unga hech qanday kompyuter o'yinlari-yu mobil telefonlarning keragi bo'lmaydi. Uni o'qishga majburlab, nasihat qilish kerak bo'lmaydi. Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda misol uchun Yaponiyada na shunday uzviy ta'lim va tarbiya birga olib boriladi. Yapon yoshlari o'qishni barcha narsadan ustun qo'yishadi. Yaponiyada barcha joylarda metrolarda, xiyobonlarda, ko'chalarda, xoh yirik shahar bo'lsin, xoh chekka qishloq hamma yerda bukshop va bukkafelar bor, yapon yoshlari barcha yerlarda o'tirib tinimsiz ilm olish payida bo'lishadi, ularni boshqa hech narsa qiziqitirmaydi.

Yapon maktablarida davomat 99,9% ni tashkil etadi, hech qaysi o'quvchi maktabda o'quv formasisiz kelmaydi. Fan imtihonlarida tartib shunchalik yuqoriki, yapon o'quvchi talabalari bir-biridan ko'chirish bir-biriga yordam berish yoki har xil ko'z bo'yamachiliklarni xayollariga ham keltirishmaydi, barchalari, hammalari o'zlari uchun o'z kelajaklari uchun harakat qilishadi. Yaponiyada ta'limda milliy an'analar hamda yaponcha tarbiya ruhi ta'lim bilan omuxtalashib ketgan va hozirgi kunda dunyoning yetakchi mutaxassislari yaponiyadan yetishib chiqayotganligi, davlat yalpi ichki mahsulotining oshishi, eng muhimi jamiyatdagi ishsizlar sonining kamligi yapon ta'lim tizimining naqadar samarali ekanligini isbotlaydi. Men bu fikrlarim bilan kimnidir



maqtash, kimnidir yerga urish maqsadidan yiroqman, lekin ibrat olsa bo’ladiganlardan ibrat olish kerakligini aytmoqchiman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. A.Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”
2. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”. Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil.
3. E.G’oziev “Ontogenez psixologiyasi”. 2010-yil.